

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

# FAN: “MASHINA TRAKTOR AGREGATLARI ISH UNUMINI BOSHQARISH”

MAVZU 17

## «Mashina traktor agregatlarining ish unumini oshirishning sotsiologik rezervlari»




IGAMBERDIYEV ASQAR KIMSANOVICH
texnika fanlari doktori, professor

Mashinalardan foydalanish va ta’mirlash kafedrasi mudiri




# Reja:

**Sotsiologik rezervlar:**

1. Mexanizatorlar (agregatni oqilona boshqaradigan operatorlar) jamoasini tashkil etish.
2. Mexanizatorlar (agregatni oqilona boshqaradigan operatorlar) jamoasi mehnatini muxofazalash.
3. Ishni ilmiy tashkil etish.
4. Mexanizatorlar (agregatni oqilona boshqaradigan operatorlar) jamoasi mehnatini rag’batlantirish.

# Мавзу бўйича билим савиясини баҳолаш

## Тушунчалар

*Таянч иборалар:*

1.Mexanizatorlar (agregatni oqilona boshqaradigan operatorlar) jamoasini tashkil etish, operatorlar mehnatini muxofazalash, Ishni ilmiy tashkil etish, mehnatini rag'batlantirish.

## Назорат саволлари

1. Mashina traktor agregatlarining ish unumini oshirishning sotsiologik rezervlariga nimalar kiradi?.
2. Mexnatni ilmiy tashkil qilishni qanday tushunasiz

| Биламан (дарс бошида ёзилади) | Билишни хоҳлайман (дарс бошида ёзилади) | Билиб олдим (дарс охирида ёзилади) |
|---|---|---|
| | | |

Mashina traktor agregatlarning ish unumini oshirishning sotsiologik rezervlari ham katta ahamiyatga ega




Mashina traktor agregatlarning ish unumini oshirishning sotsiologik rezervlari

**Mashina traktor agregatlarning ish unumini oshirishning sotsiologik rezervlari quyidagilarni nazarda tutadi:**

1. Har qanday qishloq xo'jalik texnikani (traktor, g'alla o'rish kombayni, paxta teradigan mashina, barcha turdagi qishloq xo'jalik mashinasi va boshqa stasionar vositalar) malakali operator, mutaxassis ehtiyoriga topshirish;
2. Fermer xo'jaliklar (fermerlar uyushmasi), klasterlar, qishloq xo'jaligi korxonalarning mashinalar saroyi, ustaxonalari, texnik tashxislash shoxobchalari malakali chilangarlar, muhandis-texnik hodimlar bilan to'la ta'minlash (butlash);
3. Malakali chilangarlar, muhandis-texnik hodimlarni yangi, yuqori quvvatli, keng qamrovli, elektron boshqaruv tizimlar bilan jihozlangan texnik vositalarni boshqarish, ta'mirlash, tashxislash, elektron tizimlarni dasturiy yangilash, texnik servis, tashxislash, smenali, mavsumiy texnik xizmatlar ko'rsatish qoidalarini o'rgatish;
4. Malakali chilangarlar, muhandis-texnik hodimlarning ish haqini o'z vaqtida berib borish, namunali hodimlarni moddiy rag'batlantirish, operatorlar va chilangarlarning mehnatini muhofaza qilish.

# Mexanizatorlar (agregatni oqilona boshqaradigan operatorlar) jamoasini tashkil etish

**Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:**

1. Har bir traktor, o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinalarni bilimli, malakali, agregatni oqilona boshqaradigan operator qo'liga topshirish;
2. Mashinalar saroyi, muqobil mashina traktor parklari ustaxonalari, Servis markazlari (tuman va klasterlarda) malakali chilangarlar, muhandis-texnik hodimlar jamoasiga jamlangan bo'lishi kerak;
3. Jamoa xodimlari yangi texnika vositalarini boshqarish, ta'mirlash, ularga smenaviy, mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish qoidalarini o'rganishi va bilishi kerak;
4. Jamoani doimiy o'z vaqtida ish bilan ta'minlab turish, namunaviy xodimlarni moddiy rag'batlantirish, operator va chilangarlar mehnatini muhofazalash kerak.

# Mashina traktor agregatlarning ish unumini oshirish

**Bular quyidagilarni nazarda tutadi:**

1. **Yuqori smenaviy va sutkalik ishlanmani ta'minlash;**
2. **Qishloq xo'jalik ekinlarni etishtirishda barcha texnologik operasiyalarni sifati va muddatiga qo'yilgan talablarga qat'shy amal qilish;**
3. **Mashinalarning qamrov kengligi va ish bajarishdagi tezlik rejimlarini traktor quvvatidan maksimal foydalanishni hisobga olgan holda tanlash yo'li bilan agregatlarni to'g'ri tuzish, jihozlash;**
4. **Smena vaqtidan agregatlarning progressiv harakatlanish usullarini, urug' va o'g'itlarni mexanizasiya vositasi bilan zapravka qilish, nosoz mashinalarni dalaning o'zida bartaraf etish, TXKni amalga oshirish, o'rim-yig'im ishlarini otryad usulida tashkil etish, yonilg'i moylash materiallarini ta'minotida uzluksizlikni ta'minlash orqali unumli (rasional) foydalanish.**

# Mashina traktor agregatlarning ish unumini oshirish

5. Agregatlar ishini raje-marshrutlar asosida tashkil etish;

6. Operatorlar, chilangar va muhandis-texniklar xodimlarga mavsum davomida sifatli maishiy xizmat ko'rsatish, ularni moddiy jihatdan rag'batlantirish;

7. Har bir mashina traktor parkida, o'rim-yig'im otryadida dispetcherlik xizmatini joriy etish, ma'lumotlarni operativ (jadallak bilan) etkazish;

8. Fermer xo'jaliklar (fermerlar uyushmasi), klasterlar, qishloq xo'jaligi korxonalar. tuman mashina traktor parklari ishlab chiqarishiga yangi texnologiyalar, zamonaviy texnika vositalari, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish qurilmalarini joriy etish.

**Mashina traktor agregatlarning ish unumini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarga e'tibor berish kerak:**

**Agregatlarning ish unumini oshirishni yuqori smenaviy ish unumiga erishish tavsiya etiladi, ya'ni:**

- **mashina traktor agregatlarni to'g'ri tuzish;**
- **traktor quvvati va mashinaning qamrov kengligidan to'la foydalanish;**
- **texnologik to'xtashlar, salt yurishlar, tuzatishlar va texnik xizmatga sarflanadigan vaqtlarni keskin qisqartirish;**
- **mashina traktor agregatlarni sutka davomida foydalanish vaqtini uzaytirish (mashina traktor agregatlardan 14-21 soat 2 va 3 smenada ishlatish);**
- **mashina traktor agregatlardan mavsum davomida to'la foydalanish;**
- **mashina traktor agregatlari parkini yuklanish darajasini oshirish.**

# Mehnat unumdorligi tushunchasi

**Mehnat unumdorligi** sarflangan mehnat birligi (kishi-kun, kishi-soat) ga to'g'ri keladigan mahsulot birligi bilan aniqlanadi.

**Mehnat unumdorligini oshirishda** uni ilmiy asosda tashkil etish mihim o'rin egallaydi.

**Uning asosiy vazifasi** – kam mehnat sarflagan holda operatorlarning (mexanizatorlarning) mehnatidan ko'proq samara (foyda) olishdan iborat.

# Mehnat unumdorligini oshirish

**Mashina traktor agregatlarning samaradorligi mehnat unumdorligiga bevosita bog'liqdir. Mehnat unumdorligi sarflangan mehnat birligi (kishi-kun, kishi-soat) ga to'g'ri keladigan mahsulot birligi bilan aniqlanadi.**

**Mehnat unumdorligini oshirishda uni ilmiy asosda tashkil etish mihim o'rin egallaydi.**

**Uning asosiy vazifasi – kam mehnat sarflagan holda operatorlarning (mexanizatorlarning) mehnatidan ko'proq samara (foyda) olishdan iborat.**

# Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ***Mehnatni ilmiy tashkillashtirish,*** ya'ni ishlab chiqarishni davomli, ketma-ket va og'ishmasdan rivojlantirish, yangi innovatsion texnologiyalar va texnikalarni qo'llash, yangi usullarni joriy etish, mehnat sharoitlari va boshqaruvni yuqori saviyada tashkillashtirish;
- ***Operatsiyalarni mexanizatsiya-lashtirish*****,** ya'ni qo'l mehnatini mashina bilan almashtirish, sun'iy intellektli, kichik mexanizatsiyalar va boshqalarni qo'llash;
- ***Mehnatni oqilona tashkillashtirish*****,** ya'ni eng qulay ish sharoitlarini yaratish, odamlarni va texnikani to'g'ri taqsimlash, jixoz va asboblar sifatini yaxshilash, materiallarni ish uchun qulay joylashtirish va boshqalar;
- ***Mehnatni jadallshtirish*****,** ya'ni vazifani aniq taqsimlash, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishchilarning malakasini oshirish va madaniy saviyasini ko'tarish.

# Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari

| | |
|---|---|
| Mehnatni ilmiy tashkillashtirish | Ishlab chiqarishni davomli, ketma-ket va og'ishmasdan rivojlantirish, yangi innovatsion texnologiyalar va texnikalarni qo'llash, yangi usullarni joriy etish, мehnat sharoitlari va boshqaruvni yuqori saviyada tashkillashtirish. |
| Operatsiyalarni mexanizatsiya-lashtirish | Qo'l mehnatini mashina bilan almashtirish, sun'iy intellektli, kichik mexanizatsiyalar va boshqalarni qo'llash. |
| Mehnatni oqilona tashkillashtirish | Eng qulay ish sharoitlarini yaratish, odamlarni va texnikani to'g'ri taqsimlash, jixoz va asboblar sifatini yaxshilash, materiallarni ish uchun qulay joylashtirish va boshqalar. |
| Mehnatni jadallshtirish | Vazifani aniq taqsimlash, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishchilarning malakasini oshirish va madaniy saviyasini ko'tarish. |

**Hulosalar:**

1. Mashina traktor agregatlarning ish unumiga ta’sir etuvchi omillarning turkmlanishi va guruhlanishi ularning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qishloq xo’jaligi texnikalari parki tarkibini (strukturasini) optimallashtirish, ularni agrotexnik mavsumlar davomida optimal yuklanishini ta’minlash, ularni operativ boshqarish, quvvatidan to’la foydalanish, salt yurishlar ulushini kamaytirish, g’ildiraklarining shataksirashiga yo’l qo’ymaslik, optimal yuklanish va tezlik rejimlarida ishlatish mexanizatorlar jamoasining sifatli tashkil etilishiga va bu jamoaning doimiy o’z vaqtida ish bilan ta’minlab turilishiga, ularni moddiy rag’batlantirib turilishiga, mehnatini muhofazalanganligiga bog’liq bo’ladi.
2. Mashina traktor agregatlarning ish unumiga ta’sir etuvchi sotsiologig omillarga har bir qishloq xo’jalik texnikasiga bilimli, malakali operatorlarga biriktirish, fermer xo’jaliklar (fermerlar uyushmasi), klasterlar, qishloq xo’jaligi korxonalari ustaxonalari malakali chilangarlar muhandis-texnik xodimlar bilan shakllantirish, ishlab chiqarishiga kirib kelayotgan yuqori quvvatli, keng qamrovli, kombinasiyalashgan yangi qishloq xo’jalik texnikalarni boshqarish, ta’mirlash, texnik servis, smenali va mavsumiy texnik xizmatlarni o’tkazish tartib va qoidalarini o’rgatish va ko’nikma hosil qilish, hodmlarni mehnatini qadrlash, rag’batlantirish kabi masalalarga bog’liq bo’ladi.

# Adabiyotlar:

1. Игамбердиев А.К., Алиқулов С. Тракторлар ва қишлоқ хўжалик машиналаридан фойдаланиш, техник сервис. Тошкент, ТИҚХММИ, 2020.-286 б.
2. Игамбердиев А., Алиқулов С. Машиналарнинг техник самарадорлиги. Тошкент, ТИҚХММИ МТУ., 2021.-100-б.
3. Иофинов С.А., Лышко Г.П. Машина-трактор паркидан фойдаланиш. М.: Колос. 1984
4. Наумов Ю.И. Машина-трактор паркидан фойдаланиш. Т. Меҳнат. 1986
5. Иофинов С.А., Бабенко Э.П., Зуев Ю.А. Машина-трактор паркидан фойдаланишга оид справочник. Т.: Меҳнат, 1986.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!






IGAMBERDIEV ASQAR KIMSANOVICH

Mashinalardan foydalanish va ta’mirlash kafedrasi mudiri

+ 998 71 237 05 86

asqar1959@mail.ru

asqar59 +99894 641 24 98